



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

6-SON, 8-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 6, ВЫПУСК 8

LAWYER HERALD

VOLUME 8, ISSUE 6



YOQUBJONOV Ma'rufjon Odiljon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti o'qituvchisi
E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

KRIPTO-AKTIVLARNING HUQUQIY MAQOMI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): YOQUBJONOV M.O.
Kripto-aktivlarning huquqiy maqomi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer
herald. № 6 (2025) B. 50–56.



6 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada kripto-aktivlarning huquqiy maqomi masalasi nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kripto-aktivlarning huquqiy tabiati yuzasidan ilmiy doktrinada mavjud yondashuvlar, xususan ularni mulk, tovar, valyuta yoki alohida raqamli huquqiy kategoriya sifatida tasniflashga doir qarashlar qiyosiy tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan huquqiy-nazariy mezonlar asosida kripto-aktivlarning o'ziga xos texnologik va iqtisodiy xususiyatlari, shuningdek ularning an'anaviy huquqiy institutlarga mosligi baholanadi.

Xalqaro amaliyotda kripto-aktivlarning huquqiy maqomi, ularning turli davlatlar qonunchiligida qanday huquqiy kategoriya sifatida tan olinishi, tasnifi va normativ ta'riflari (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Singapur va boshqa davlatlar misolida) tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasining kripto-aktivlarga nisbatan yondashuvi, ularning huquqiy talqini va mavjud normativ bo'shliqlar ochib beriladi.

Tadqiqot natijalari kripto-aktivlarning huquqiy tabiati bo'yicha yagona universal yondashuv hali shakllanmaganini, biroq global miqyosda ular uchun maxsus huquqiy kategoriya yaratish zarurati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Maqola xulosalarida kripto-aktivlarni huquqiy jihatdan aniqlashtirish, ularni tasniflash mezonlarini belgilash, investorlar huquqlarini himoya qilish va barqaror normativ-huquqiy muhitni shakllantirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: kripto-aktivlar, kriptovalyuta, blokcheyn, huquqiy maqom, mulkiy huquqlar, raqamli mulk, tovar, valyuta, qimmatli qog'ozlar, tokenlar, MiCA Regulation, smart-shartnomalar, normativ-huquqiy tartibga solish, investorlarni himoya qilish.

ЯКУБЖАНОВ Маъруфжон
Преподаватель Института переподготовки и
повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан
E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

ПРАВОВОЙ СТАТУС КРИПТОАКТИВОВ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье теоретически и практически всесторонне анализируется вопрос о правовом статусе криптоактивов. В рамках исследования проводится сравнительный анализ существующих подходов в научной доктрине к правовой природе криптоактивов, в частности,

взглядов на их классификацию как собственности, товара, валюты или отдельной цифровой правовой категории. На основе правовых и теоретических критериев, выдвинутых авторами, оцениваются специфические технологические и экономические особенности криптоактивов, а также их соответствие традиционным правовым институтам.

В международной практике анализируется правовой статус криптоактивов, как они признаются правовой категорией в законодательстве разных стран, их классификация и нормативные определения (на примере США, Европейского Союза, Японии, Сингапура и других стран). Также в статье раскрывается подход Республики Узбекистан к криптоактивам, их правовое толкование и существующие нормативные пробелы.

Результаты исследования показывают, что единый универсальный подход к правовой природе криптоактивов еще не сформирован, но в глобальном масштабе возрастает необходимость создания специальной правовой категории для них. В заключении статьи выдвигаются научно-практические предложения по правовому уточнению криптоактивов, определению критериев их классификации, защите прав инвесторов и формированию стабильной нормативно-правовой среды.

Ключевые слова: криптоактивы, криптовалюта, блокчейн, правовой статус, имущественные права, собственность, товар, ценные бумаги, токены, MiCA Regulation, смарт-контракты, нормативное регулирование.

MARUFJON Yakubjanov

Lecturer at Training Institute for Lawyers

E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

LEGAL STATUS OF CRYPTO ASSETS

ANNOTATION

This scientific article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of the legal status of crypto assets. The study conducts a comparative analysis of existing approaches in legal doctrine regarding the legal nature of crypto assets, particularly views on their classification as property, commodity, currency, or a separate digital legal category. Based on legal and theoretical criteria proposed by the authors, the specific technological and economic features of crypto assets are evaluated, as well as their compatibility with traditional legal institutions.

The article analyzes the legal status of crypto assets in international practice, examining how they are recognized as a legal category in the legislation of various countries, their classification, and regulatory definitions (using examples from the USA, European Union, Japan, Singapore, and other countries). The article also explores the Republic of Uzbekistan's approach to crypto assets, their legal interpretation, and existing regulatory gaps.

The research findings indicate that a unified universal approach to the legal nature of crypto assets has not yet been established, but there is a growing global need to create a special legal category for them. The conclusion of the article presents scientific and practical proposals for legal clarification of crypto assets, determining criteria for their classification, protecting investors' rights, and establishing a stable regulatory and legal environment.

Keywords: crypto assets, cryptocurrency, blockchain, legal status, property rights, property, goods, securities, tokens, MiCA Regulation, smart contracts, regulatory regulation, investor protection.

So'nggi yillarda xalqaro xususiy huquqning eng bahsli tushunchalaridan biri sifatida maydonga chiqqan kripto-aktiv o'zining huquqiy tabiatini hal etishda hali hanuz turli talqinlarning markazida turibdi. U tovar sifatida muomalaga kiradimi? Pul vazifasini bajaradimi? Yoki u yangi shakldagi

raqamli mulkmi? Bu savollar nafaqat iqtisodchi va huquqshunoslarni, balki regulyatorlar, investorlar hamda jamiyatni o'ziga jalb etib, kripto-aktivlarning o'ziga xos shakllanish jarayonini murakkab ilmiy munozara maydoniga aylantirdi. Chunki kripto-aktivlar na klassik tovar standartiga, na an'anaviy pulning institutsional talqiniga, na mulkning fuqarolik-huquqiy modeliga to'liq mos kelmaydi, aksincha, u ushbu uch sohaning chegaralarini buzib, o'rtada turuvchi yangi yuridik kategoriya sifatida o'ziga xos hodisani yuzaga keltirmoqda.

Kripto-aktivni tovar sifatida ko'ruvchilar, avvalo, uning bozor talab va taklifiga muvofiq narxining o'zgaruvchanligini asos qilishadi; uni pul deb biluvchilar esa uning almashinuv vositasi va hisob birligi sifatidagi funksiyalariga e'tibor qaratadilar, raqamli mulk tarafdorlari esa blokcheyn tizimidagi egalik huquqining mustaqil tabiatini mulk huquqining mohiyati bilan qiyoslaydilar. Shu bilan birga, turli davlatlar qonunchiligida ham bu masala bir xil talqin qilinmaydi: AQShda kripto-aktivlar bir vaqtning o'zida tovar, qimmatli qog'oz va mulk sifatida turli organlar tomonidan tasniflanayotgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqida ular MiCA orqali "*crypto-asset*"ning alohida huquqiy toifasiga ajratilgan. Osiyoda, xususan Yaponiya, Singapur va Janubiy Koreyada esa kripto-aktivlar moliyaviy instrument sifatida qat'iy litsenziyalash tartibiga o'tkazilgan.

Kripto-aktivlarning huquqiy tabiati haqida olimlar turlicha fikr bildirgan bo'lsa-da, ularning g'oyalari bir-birini to'ldiradi, chunki ular kripto-aktiv nima ekanini huquq, iqtisod, texnologiya va jamiyat nuqtai nazaridan tushuntirib beradi. Masalan, Vashington universiteti professori J. Fairfieldning g'oyasi shundan iboratki, mulk deganda faqat moddiy, qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgan narsa tushunilmaydi. Unga ko'ra, mulkning eng muhim belgisi **nazorat qilish, boshqarish** va **boshqalarni undan chetlashtirish** imkoniyatidir [1]. Ya'ni, shaxs muayyan obyekt ustidan real boshqaruv vakolatiga ega bo'lsa va uchinchi shaxslarning aralashuvini cheklay olsa, mazkur obyekt huquqiy ma'noda mulk sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu sababli, Fairfield kripto-aktivlarni "*information mulk*" deb ataydi, chunki ularga egalik qilishning asosi – maxfiy kalitga egalik qilishdir. Kim ushbu kalitni nazorat qilsa, u shaxs kripto-aktiv ustidan to'liq huquqiy va texnik boshqaruvga ega bo'ladi. Bu holat an'anaviy mulk munosabatlariga juda yaqin: masalan, moddiy boylik joylashgan ombor yoki seyf kaliti kimda bo'lsa, amalda boylik ustidan real nazorat ham o'sha shaxs qo'lida bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, kripto-aktivlar mulk huquqining raqamli muhitga moslashgan yangi shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Blokcheyn huquqi bo'yicha dunyoda tan olingan tadqiqotchilar Primavera De Filippi va Aaron Wright kriptoalyutalar va tokenlarni faqat iqtisodiy aktiv yoki texnologik yangilik sifatida emas, balki mustaqil huquqiy va ijtimoiy tizim sifatida tahlil qiladi. Ularning yondashuvida token oddiy "raqamli yozuv" yoki ma'lumotlar bazasidagi kodlar majmui emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta huquqiy funksiyani bajaruvchi murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mualliflar tokenlarni huquqiy munosabatlarning yangi shakli deb hisoblab, ularni an'anaviy huquqiy institutlarga to'liq qiyoslab bo'lmashligini ta'kidlaydi. Chunki tokenlar klassik shartnoma, mulk yoki majburiyat tushunchalarining ayrim elementlarini o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, ular texnologik arxitektura orqali amalga oshirilishi bilan tubdan farq qiladi [2]. De Filippi va Wrightga ko'ra, token muayyan holatlarda shartnoma vazifasini bajaradi, chunki u tomonlar o'rtasidagi kelishuvni avtomatik tarzda amalga oshiradi va ijroni inson omiliga bog'liq bo'lmagan holda ta'minlaydi. Shu bilan birga, token ayrim vaziyatlarda mulkiy huquqni ifodalaydi, masalan, muayyan raqamli yoki real aktivga egalikni, undan foydalanish yoki uni boshqalarga o'tkazish huquqini bildirishi mumkin. Boshqa holatlarda esa token ovoz berish, kirish huquqi yoki xizmatdan foydalanish imkoniyatini beruvchi huquqiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa tokenlarning yagona huquqiy kategoriya doirasida izohlanmasligini, ularning huquqiy tabiatini kontekstga qarab baholash zarurligini ko'rsatadi.

Mualliflarning eng muhim va konseptual g'oyalaridan biri – “*code is law*” ya'ni “kod qonunni o'zgartiradi” degan tezisidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, blokcheyn tizimlarida qoidalar davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orqali emas, balki dasturiy kodlar orqali belgilanadi va ijro etiladi. Agar an'anaviy huquq tizimida qoidalar insonlar tomonidan buzilishi va keyinchalik sud yoki davlat organlari orqali majburiy ijroga yo'naltirilishi mumkin bo'lsa, blokcheyn muhitida qoidalar oldindan kodlashtiriladi va tizimning o'zi ularning buzilishiga texnik jihatdan yo'l qo'ymaydi. Shu sababli, mualliflar nazarida, kod faqat texnik vosita emas, balki huquqiy tartibni shakllantiruvchi asosiy mexanizmga aylanadi. De Filippi va Wright ushbu holatni “texnologik boshqaruv” sifatida talqin qilib, davlat huquqining ayrim funksiyalari asta-sekin algoritmik mexanizmlar tomonidan bajarilayotganini ko'rsatadi. Natijada, huquqiy munosabatlarda ishonch tushunchasi sudlar yoki davlat institutlariga emas, balki kodning o'zgarmasligi va shaffofligiga asoslanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, De Filippi va Wrightning konsepsiyasi kripto-aktivlarni mulk yoki valyuta sifatida baholash bilan cheklanmaydi, balki ularni huquqni amalga oshirish usuli sifatida talqin qiladi.

Prinston universiteti professori Arvind Narayanan va uning hamkorlari tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra esa kripto-aktivlarning texnik jihatiga chuqur kirib boradi. Ularning asosiy fikri shuki, kripto-aktivga egalik qilish deganda, aslida maxfiy kalit yoki parol (*private key*)ga egalik qilish tushuniladi [3]. Chunki aynan maxfiy kalit yordamida tranzaksiyalarni imzolash va aktivni boshqarish mumkin. Shuning uchun maxfiy kalit orqali kripto-aktivga egalikning texnik mohiyatini tushuntiradi. Bu yondashuv huquqshunoslarga kripto-aktivlarning egalik jihatlarini klassik mulkiy huquq bilan taqqoslash imkonini beradi. Ya'ni, texnik imkoniyat bilan huquqiy imkoniyat bir-biriga juda yaqin keladi.

Aynan shu nazariy zanjirni amaliy hayot bilan bog'lab beruvchi muhim tushuntirishni mashhur “*Mastering Bitcoin*” kitobi muallifi, grek-ingliz olimi Andreas Antonopoulos bergan. U kripto-aktivlar ustidan egalik masalasini murakkab huquqiy konstruksiyalar orqali emas, balki oddiy va kundalik hayotiy misollar orqali tushuntiradi. Antonopoulosning yondashuvi kripto-aktivlarga egalik tushunchasining qanchalik amaliy va real nazoratga bog'liq ekanini yaqqol ko'rsatadi. Uning fikricha, kripto-aktivlarga egalik qilish avvalo **maxfiy kalit (*private key*)** ustidan nazorat bilan belgilanadi. Agar shaxs o'z maxfiy kalitini yo'qotib qo'ysa, u huquqiy jihatdan emas, balki amalda aktivni butunlay yo'qotadi [4]. Chunki blokcheyn tizimida ushbu kalitni tiklash yoki egalikni qayta tasdiqlash imkoniyati mavjud emas. Bu holat an'anaviy mulk huquqidan tubdan farq qiladi: masalan, ko'chmas mulk hujjati yo'qolsa, davlat reyestrlari orqali huquq tiklanishi mumkin, kripto-aktivlarda esa bunday mexanizm mavjud emas. Antonopoulos shuningdek, agar shaxs o'z maxfiy kalitini uchinchi shaxsga yoki markazlashgan platformaga topshirsa, u holda aktiv ustidan to'liq nazoratni ham topshirgan bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Bu holatda aktiv shaxs nomida bo'lishi mumkin, biroq real boshqaruv boshqa subyekt qo'lida bo'ladi. Aynan shu nuqtada Fairfield ilgari surgan “nazorat – egalikning asosi” degan g'oya o'zining amaliy tasdig'ini topadi. De Filippi va Wright aytganidek, bu nazorat huquqiy hujjatlar bilan emas, balki texnologik kodlar orqali ta'minlanadi. Antonopoulosning g'oyalari keyinchalik ko'plab regulyatorlar tomonidan qabul qilingan “*custodial vs. non-custodial wallet*” farqining asosiy manbasi ham bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Amerikalik huquqshunos va akademik olim Kevin Werbachning yondashuvi esa yanada keng. U tokenlarning tabiatini bitta kategoriya bilan izohlab bo'lmazligini aytadi. Chunki tokenlar bir vaqtning o'zida *valyuta, mulk, investitsiya vositasi, boshqaruv mexanizmi yoki hatto raqamli tovar* bo'lishi mumkin. Werbachning fikricha, tokenlarni to'g'ri tasniflash uchun ularning iqtisodiy modeli (*ya'ni u qanday ishlashligi, u qanday qiymat yaratishi, kimlar o'rtasida va qanday sharoitda aylanishi, talab va*

taklif mexanizmi qanday ishlashi), texnik tizimi (*ya'ni u qanday yaratilganligi, markazlashganmi yoki markazlashmaganmi, tranzaksiyalar qay darajada avtomatlashtirilganligi*), va huquqiy ta'siri (*ya'ni u shaxslar o'rtasida qanday huquq va majburiyatlarni yuzaga keltiradi, qanday xavflar va javobgarliklarni keltirib chiqarishi*) birgalikda o'rganilishi kerak [5]. Bundan tashqari, tokenlar ko'pincha boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, ularning egalari muayyan platforma yoki protokol doirasida ovoz berish, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Ayrim tokenlar esa raqamli tovar sifatida muayyan xizmat yoki resursdan foydalanish imkonini beradi. U tokenlarning ko'p qirrali tabiatini e'tirof etib, ular haqida bitta qat'iy huquqiy yondashuv bo'lishi qiyinligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv kriptο-aktivlarning murakkabligini juda aniq ko'rsatadi.

Shu tariqa, Fairfield mulkning zamonaviy nazariyasini yangilasa, De Filippi va Wright texnologiya va huquqning o'zaro ta'sirini tushuntiradi, Narayanan va Antonopoulos egalikning texnik mexanizmini ochib beradi, Werbach esa tokenlarning ko'p funktsionalligidan kelib chiqadigan huquqiy tasnif murakkabligini asoslaydi. Natijada, kriptο-aktivlar faqat iqtisodiy qiymatga ega vosita sifatida emas, balki mulk huquqi, shartnomaviy munosabatlar, texnologik boshqaruv va institutsional regulatsiya sohalarini birlashtiruvchi **yangi yuridik kategoriya** sifatida shakllanayotgani yaqqol namoyon bo'ladi. Ular an'anaviy huquqiy tushunchalarga sig'maydigan, biroq mavjud huquq tizimini qayta talqin qilishni talab etuvchi hodisa sifatida maydonga chiqmoqda.

Shunday qilib, turli olim va tadqiqotchilarning fikrlari o'zaro mantiqiy bog'lanib, kriptovalyutani oddiy elektron pul yoki an'anaviy valyutadan tubdan farq qiladigan hodisa sifatida izohlaydi. Kriptο-aktivlar texnologik jihatdan kriptografiyaga asoslangan, markazlashmagan, blokcheyn tarmog'ida mavjud bo'lgan hamda egalik va tranzaksiyalar real texnik mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan yangi iqtisodiy va huquqiy institut sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ularning tabiati va huquqiy maqomini tovar, pul yoki mulk sifatida talqin qilish masalasi hali ham ochiq bo'lib qolmoqda. Aynan shu noaniqlik kriptο-aktivlarga nisbatan turli davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan regulatoriylar yondashuvlar va xalqaro me'yoriy hujjatlarning xilma-xilligini keltirib chiqarmoqda.

Yaponiyada "To'lov xizmatlari to'g'risida"gi (PSA – Payment Services Act) Qonuni qabul qilib, nafaqat kriptο-aktivlarni tan oldi, balki ularni muomalaga kiritish uchun asosiy qoidalarni ham belgilandi[6]. Ushbu qonunga binoan kriptovalyutalar jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida fiat valyutalar kabi to'lov vositasi sifatida erkin ayirboshlash mumkin.

Qonunga muvofiq, kriptο-aktivlar jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida to'lovlarni amalga oshirishda foydalanilishi mumkin bo'lgan aktivlar sifatida e'tirof etiladi hamda ularni fiat valyutalarga erkin ayirboshlashga ruxsat etiladi. Bu holat Yaponiya yondashuvida kriptο-aktivlarning to'liq qonuniy aylanma obyekti sifatida tan olinganini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu Qonun kriptο-aktivlarni rasmiy to'lov vositasi sifatida belgilamaydi, balki ularni shartnomaviy asosda to'lovda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vosita sifatida tartibga soladi. Bu esa kriptο-aktivlarning huquqiy tabiatini valyuta va mulk o'rtasidagi oraliq kategoriya sifatida baholanadi deyish mumkin.

Yevropa Ittifoqi kriptο-aktivlarni tartibga solishni uyg'unlashtirishni ta'minlashi kerak bo'lgan "Raqamli aktivlar to'g'risida"gi yagona huquqiy hujjatini (keyingi o'rinlarda MiCA) qabul qilgan [7]. MiCA (*Markets in Crypto-Assets regulation*) – bu Yevropa Ittifoqining reglamenti bo'lib, u butun Yevropa Ittifoqi hududida kriptο-aktivlar bozori uchun yagona qoidalarni yaratishga qaratilgan. Ushbu hujjat kriptο-aktivlarning ommalashuvi tufayli yanada shaffoflikni ta'minlash, investorlarni himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. MiCA reglamentida kriptο-aktivlar turli toifalarga ajratilgan: *stablecoinlar*, *utility token*, *e-money tokenlar*, *asset-referenced tokenlar* va boshqalar. Har bir toifa bo'yicha faoliyat yuritish va ro'yxatdan o'tish tartibi, xavf-xatarlarni kamaytirish mexanizmlari va investorlarni himoya qilish choralarini belgilash orqali tartibga solinadi. Masalan, stablecoinlar uchun kapitallik talablar, rezervlarni saqlash va shaffoflik

bo'yicha aniq qoidalar ishlab chiqilgan. Shu tarzda, MiCA regulyatorlarga bozorni yaxlit nazorat qilish va investorlar manfaatlarini muhofaza qilish imkonini beradi.

Singapurda kriptovalyutalar davlat darajasida tan olingan rasmiy to'lov vositasi hisoblanadi [8]. Buni esa mamlakat moliya bozorida kriptovalyutalarning faol rivojlanish yo'lidagi birinchi qadam deb atash mumkin. Kriptovalyutalar aylanmasini nazorat qiluvchi organ Singapurda markaziy bank vazifasini bajaruvchi Pul-kredit boshqarmasi hisoblanadi. Singapurda kriptovalyutalarni tartibga solish haqida gapirganda, soliqlarni ham ta'kidlab o'tish zarur. Singapurda kriptovalyuta to'lov vositasi bo'lishiga qaramay, u tovar ham hisoblanadi.

O'zbekistonda kripto-aktivlar mayningi tartibga solingan va ularning aylanmasi qonunchilikda taqiqlanmagan, ammo ular mahsulot ayirboshlash uchun **valyuta sifatida ham tan olinmagan**. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, *"kripto-aktiv – ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq"* deb belgilangan. [9]

O'zbekistonda kripto-aktivlar aylanmasini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 03.07.2018-yildagi PQ-3832-sonli Prezident Qarori qabul qilingan bo'lib, u kripto-aktivlarni huquqiy tartibga solinishida muhim ahamiyat kasb etgan. Unda ilk bor kripto-aktivning ta'rifi, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlari, mayning tushunchasi, kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy, kripto-do'kon va boshqalarning huquqiy maqomi belgilangan. Mazkur qarorning 3-bandiga muvofiq, kripto-aktiv **mulkiy huquq deb hisoblanib**, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan qiymati va egasiga ega, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlariga esa mayning va kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlar faoliyati kiritilgan[10].

Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini tashkil etish va amalga oshirish qoidalari ham qonunchilikda belgilab qo'yildi[11].

Sohani rivojlantirish va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldini olish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchi navbatda, O'zbekistonning kripto-aktivlar bozorini barqaror va xalqaro talablarga mos rivojlantirish uchun kripto-aktivlarni aniq tasniflash, masalan, to'lov (*payment*), kommunal(*utility*) va xavfsizlik tokenlari (*security token*)ga bo'lish hamda qonunchilikda ko'rsatish kerak. Bu tasniflash mulk huquqi, soliqqa tortish va investitsion tartibga solishda muhim hisoblanadi;

ikkinchidan, kripto-aktivlarni "raqamli mulk" sifatida tan olish va ular ustidan egalik, tasarruf va himoya mexanizmlarini Fuqarolik kodeksiga kiritish mamlakatda tokenizatsiya va bu bilan bog'liq loyihalarning kengroq rivojlanishiga xizmat qiladi;

uchinchidan, kripto-aktivlar bo'yicha alohida ilmiy-ekspert markazi tashkil etilib, sud ekspertizasi, raqamli forensik ekspertiza, risk tahlili va regulyatorlar malakasini oshirishga ixtisoslashgan tizim yo'lga qo'yilishi kerak, bu sohadagi firibgarliklarning oldini olib, bozor ishtirokchilari va davlat idoralari o'rtasida ishonchni kuchaytiradi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari, nazariyalaridan tashqari, **mualliflik xulosasiga kelsak**, fikrimizcha, kripto-aktivlar o'zining turli funksiyalari, iqtisodiy aylanish mexanizmlari va texnologik asoslari tufayli bir vaqtning o'zida ham **mulk**, ham **qimmatli qog'oz**, ham **valyuta** sifatida namoyon bo'lishi mumkin. kripto-aktivlar o'z tabiatiga ko'ra yakka bir kategoriyaga sig'maydi; ular ayni paytda **mulk** bo'lishi mumkin (*agar u egalik, nazorat va iqtisodiy qiymatni ifodalasa*), **qimmatli qog'oz** bo'lishi mumkin (*agar u investorlar uchun foyda keltirishi yo'lida ishlatilsa*), va **valyuta** sifatida ham xizmat qilishi mumkin (*agar u almashinuv vositasi sifatida keng muomalada yursa*). Demak, kripto-aktivlar – bu funksional jihatdan ko'p qirrali, iqtisodiy dinamik va texnologik jihatdan o'zgaruvchan obyekt

bo'lib, ularning huquqiy maqomi ham universallashtirmagan, balki funksional, riskga asoslangan, bozor amaliyotini inobatga oluvchi moslashuvchan yondashuvni talab qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Fairfield, J. *Owned: Property, Privacy, and the New Digital Serfdom*. Cambridge University Press, 2017, <https://www.cambridge.org/core/books/owned/BAF65AFBD48F48AA7E3319A279D7724D>.
2. De Filippi, P., & Wright, A. *Blockchain and the Law: The Rule of Code*. Harvard University Press, 2018, <https://lawcat.berkeley.edu/record/98369>.
3. Narayanan, A. et al. *Bitcoin and Cryptocurrency Technologies*. Princeton University Press, 2016, <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691171692/bitcoin-and-cryptocurrency-technologies> ;
4. Antonopoulos, A. *Mastering Bitcoin*. O'Reilly Media, 2017. <https://www.oreilly.com/library/view/mastering-bitcoin-2nd/9781491954379/>;
5. Werbach, K. *The Blockchain and the New Architecture of Trust*. MIT Press, 2018, <https://mitpress.mit.edu/9780262038924/the-blockchain-and-the-new-architecture-of-trust>.
6. Payment Services Act, Law No. 59 of 2009 (Japan). Amendment in 2017, 2020, 2022. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3965/en>.
7. Markets in Crypto-Assets Regulation (MiCA). Regulation (EU) 2023/1114 <https://eur-lex.europa.eu/EN/legal-content/summary/european-crypto-assets-regulation-mica.html>.
8. Riyabchikov D.V., Основные аспекты регулирования криптовалюты в Сингапуре, Образование и право №6, 2023, 242-b, <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-aspekty-regulirovaniya-kriptovalyuty-v-singapore/viewer>.
9. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug'i blan tasdiqlangan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi NIZOM (15.08.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3380) <https://lex.uz/docs/-6158224>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarori. (2018). O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptoaktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida (PQ3832sonli Qaror, 03.07.2018). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3806053>.
11. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug'i. (2022). Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (15.08.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3379) <https://lex.uz/docs/-6158330>.

YURIST AXBOROTNOMASI

6-SON, 8-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 6, ВЫПУСК 8

LAWYER HERALD

VOLUME 8, ISSUE 6

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416